DOI

Maxammadiev D.S.
Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar
kasb-hunar maktabi yoshlar
bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

YOSHLARNI “OMMAVIY MADANIYAT” NING SALBIY TASIRLARIDAN HIMOYA QILISH KO‘NIKMASINI SHAKILLANTIRISH

Annotatsiya
Ushbu maqolada “ommaviy madaniyat”ning shakl shamoyili va ularni yoshlar ongiga kirib borishning salbiy yo‘llari pedagogik tamoyillar va usullar asosida ko‘rsatib berilgan.
Kalit so‘zlar: *ommaviy madaniyat, ma’naviyat, shou-tomosholar, gladiator, vatanparvarlik*

Mahammadiev D.S.
Kattakurgan city, Samarkand region
vocational school youth
deputy director for work with

DEVELOPING SKILLS TO PROTECT YOUTH FROM THE NEGATIVE EFFECTS OF POPULAR CULTURE

Abstract
This article shows the form of "popular culture" and the negative ways of their penetration into the minds of young people based on pedagogical principles and methods.
Key words: *popular culture, spirituality, shows, gladiator, patriotism*

Respublikamizda yoshlarni qo‘llab quvvatlash bugungi kunda davlat siyosatining elitasiga aylandi. Albatta har bir mamlakat o‘z kelajagini va jamiyat taraqqiyotini yoshlarsiz tasavvur qilaolmaydi. Bu borada davlatimiz tomonidan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bilan birga aholiimizning eng yosh qatlami bo‘lgan (14-30 yosh) fuqarolarni jamiyatmiz taraqqiyotiga xuddi atom quroli singari ko‘rinmas dushman “ommaviy madaniyat” bugungi kunda ta’lim-tarbiyada chuqur va puxta o‘ylangan chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ma’lumki, o‘quv jarayoni kun sayin takomillashib, murakkablashmoqda. Uning mazmuninini zamon ruhiga mos holda modernizatsiya qilish pedagogik faoliyatni isloh qilishga undamoqda. Bugungi kunga kelib, o‘quvchilarni rivojlantirishga

https://wordlyknowledge.uz

yo‘naltirilgan dasturlar, tanlovlar, loyihalar soni ortmoqda. Mazkur innovatsiyalarning aksariyat qismi xalqaro tajribalarga tayangan holda vujudga kelmoqda.

Jahon tajribasi doirasida savodxonlik, kompetentlilik va muvaffaqiyatga asoslangan aqliy ishchanlikga asoslangan qobiliyatni shakllantirish lozim bo‘lmoqda. Barchasi ayonki, o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish, ularda tobora keng qamrovga ega bo‘layotgan “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish ikkinchi o‘ringa tushib qolmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qitish va tarbiyalash orasidagi mutanosiblikka putur yetmoqda.

Biz bugun ta’limning katta ahamiyatini inkor etmagan holda o‘quvchilarni madaniyatli, yetuk shaxs sifatida shakllantirishda ajdodlarimiz merosidan foydalanishning beqiyos ahamiyatini e’tirof etishimiz lozim. “Ommaviy madaniyat” o‘z tabiatiga ko‘ra milliy madaniy qadriyatlarni chetga surishga harakat qiladi. U o‘zining shou-tomosholari (biznesga asoslangan) orqali yoshlar ongini zabt etishga tobora ko‘proq harakat qilmoqda. Qadimda ommani jamiyat taraqqiyotiga xavf solishdan qo‘rqib “Rim imperiyasi” turli xil shou tomoshlar uyushtirib kelgan. Jumldan, “gladiator”lar jang qiladigan “Kolizey”da 150 kunlik shou-tomoshlar uyushtirgan. Maqsad omma dunyoqarashini jamiyat taraqqiyotini isloh qilishga emas balki ma’nan majruh avlodini yetishtirish va ularni “Rim imperiyasi”ning bo‘lajak “qo‘riqchisi” sifatida tarbiyalash ilgari surilgan.

Bugungi kunda jamiyatning aksariyat a’zolarida madaniy qadriyatlarni egallashga bo‘lgan intilish susayib, “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib qiluvchi vositalarga bo‘lgan qiziqish kuchaymoqda. Natijada, bugungi yoshlar azaliy qadriyatlar, madaniy boyliklar, ajdodlarimiz merosidan uzoqlashib, uning mazmun mohiyatini tushunmayaptilar. “Ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari bo‘lgan shou biznes vakillari esa bundan samarali foydalanmoqdalar. Natijada jamiyat a’zolarining madaniy saviyasi pasayib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar murakkablashmoqda. Yoshlar ongida moddiy manfaatdorlikka bo‘lgan intilish kuchayib, ma’naviy-axloqiy, madaniy qadriyatlarning mohiyati pasaymoqda.

Yo‘qotilgan ma’naviy qadriyatlar o‘rnida bo‘shliq vujudga kelmoqda. Xuddi mana shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati ajdodlarimiz merosini o‘rganishga qaratilgan siyosatni ilgari surmoqda. Ma’lumki, shaxsning madaniy saviyasi pasayganda, jamiyatning barcha sohalari rivojlanishida qiyinchiliklar vujudga keladi.

Bu esa jamiyatning ma’naviy soxasini rivojlantirishga nisbatan ijobiy ta’sirning pasayishiga olib keladi. O‘zbekiston yoshlarining ongini o‘zgartirish uchun ularda o‘zlikni anglash hissini kuchaytirish talab qilinadi. O‘zlikni anglash esa uzoq asrlar davomida yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirish negizida vujudga keladi. Shuning uchun ham yosh avlodning ma’naviyatini rivojlantirishning pedagogik chora-tadbirlarini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Inson ma’naviyatining asosini o‘z xalqi va vatanining buyuk

https://wordlyknowledge.uz

o‘tmishi bilan faxrlanish tashkil etadi. Bu esa yoshlarni yaratuvchilik va o‘z xalqining yutuqlarini mustahkamlash yo‘lida harakat qilishga undaydi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda o‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni jamiyat hayoti bilan integratsiyalash yo‘nalishidagi ishlarni yanada kuchaytirish taqozo qilinmoqda. Bugungi o‘quvchi-yoshlar mustaqil O‘zbekistonning xaqiqiy fuqarolariga aylanishlari uchun ta’lim-tarbiya jarayonida qulay pedagogik muhit yaratilishi kerak. O‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-axloqiy rivojlantirish, ular ongiga o‘zbek xalqining ko‘p asrlik madaniy boyliklarini singdirish ta’lim-tarbiya jarayonining kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalari sirasiga kiradi. Ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmaning asosini ham yosh avlodni ma’naviy, madaniy jihatdan rivojlantirish tashkil qiladi.

Albatta yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, ijodkor, tashabbuskor, kompetentli O‘zbekiston fuqarosini tarbiyalash, uni pedagogik jihatdan uzluksiz qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimiga tayanadi. Bu tizim o‘zida:

- fidoyilik – o‘zbek xalqi va vataniga muxabbat, xalqqa xizmat qilish;
- ijtimoiy daxldorlik – shaxsiy va milliy mustaqillik, o‘zaro ishonch, davlat va fuqarolar manfaatlari yo‘lida xizmat qilish, xaqgo‘ylik, raxmdillik, faxrlanish va yetuklik;
- fuqarolik – Vatanga xizmat qilish, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquq va qonunchilik asoslari, ko‘pmadaniyatlilik, vijdon erkinligi va e’tiqodlilik;
- oila – sevgi va ishonch, salomatlik, farovonlik, ota-onaga hurmat, kattalar va kichiklarga g‘amxo‘rlik, hayot davomiyligi haqida qayg‘urish;
- mehnat va ijod – mehnatsevarlik, ijodkorlik va yaratuvchilik, maqsadga intilish va qat’yaitlilik;
- fan – bilimni qadrlash, tabiiylikka intilish, olamning ilmiy manzarasi;
- diniy qadriyatlar – e’tiqod haqidagi tasavvurlar, ma’naviyatlilik, diniy dunyoqarash, tolerantlik hamda dinlararo muloqotning shakllanishi;
- san’at va adabiyot – go‘zallik, uyg‘unlik, insonning ma’naviy olami, axloqiy tanlov, estetik, axloqiy rivojlanish,
- tabiat – tadrijiy rivojlanish, ona zamin, tabiatni asrab avaylash, ekologik ong;
- insoniylik – olam ichidagi olam, xalqlar va madaniyatlarning rang-barangligi, insoniyatning taraqqiyoti, xalqaro hamkorlik kabilar.

Ushbu muammolar kasb-hunar maktablari yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarining ma’naviy tarbiya sohasidagi faoliyati asosini tashkil etadi. Xuddi shunday tuyg‘ularni shakllantirish asosida o‘quvchi-yoshlarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek guruh rahbarlari o‘zining pedagogik faoliyatida insonparvarlik, hamkorlik, ko‘pchilik haqida g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalariga tayanishi kerak. Bunda muayyan tarbiyaviy maqsadlar nazarda tutiladi:

https://wordlyknowledge.uz

1) O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sog‘lomligini saqlash, ularni o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy qadriyatlari bilan yaqindan tanishtirish.

2) O‘zbek xalqining madaniyati, tarixi, respublikamizning tabiiy-ekologik o‘ziga xosligini o‘quvchilar ongiga singdirish.

3) Oilaviy tarbiyaning imkoniyatlarini kengaytirish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida bir qator vazifalarni hal qilishni ham guruh rahbari nazarda tutishi kerak:

- o‘quvchilarni ezgulik va yovuzlikni farqlash, ezgu amallarni bajarishga intilish hissini shakllantirish;

- o‘quvchilarning xatti-harakatlari va intilishlarida axloqsizlik, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlariga moyillik kuzatilganda unga qarshi kurashish metodlarini qo‘llash;

- o‘zbek xalqining milliy madaniy an’analarini qadriyatlarini o‘rgatish asosida o‘quvchilarda vatanga muxabbat, xalqparvarlik, ezgulikka intilish kabi sifatlarni shakllantirish;

- o‘zbek xalqining ko‘p asrlik oilaviy fadriyatlari negizida ota-onalarni bola tarbiyasiga oid pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish.

Qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun guruh rahbarlari tashxislovchi, o‘quv-biluv, mehnat, estetik, ijtimoiy foydali, qadriyatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan, badiiy-ijodiy, jismoniy-sog‘lomlashtiruvchi faoliyat turlaridan foydalanish mumkin. Bunda guruh rahbari bir qator tamoyillarga tayanadi:

- o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda dialektik bilish va shaxsning shakllanishi qonuniyatlariga asoslanib tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash tamoyili;

- tarbiyaning tabiiyligi va tabiatshunoslikka asoslanganligi tamoyili;

- pedagogning o‘quvchilarga ishonch bilan yondoshishi tamoyili.

Tarbiyaviy faoliyat jarayoniga kasb-hunar maktabdagi pedagogik jamoaning barcha a’zolari ishtirok etadilar. Ma’naviy-axloqiy tarbiya yuksak qadriyatlar va ajdodlarimiz merosi negizida amalga oshadi. Shundan kelib chiqqan holda, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

-o‘z vatani va xulq-atvoriga nisbatan burch va mas’uliyat hissining paydo bo‘lishi, mehnat qilish ehtiyojining vujudga kelishi, atrofdagilarga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lish;

-tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, qonunlarga itoat etish, oilaviy hayotga nisbatan ijtimoiy jihatdan ma’qullangan nuqtai nazar va munosabatlarning shakllanishi, muloqot madaniyatiga oid kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanganligi, o‘z-o‘zini anglash va tarbiyalash ehtiyojining vujudga kelganligi.

Xulosa qilganda, yurt kelajaginig egalari o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllanishi uchun ularda vatanga muhabbat, oilaga hurmat, sog‘lom turmush tarziga nisbatan ma’naviy ehtiyoj, borliqqa nisbatan go‘zallikni his etish, mehnatsevarlik, ona zaminga

https://wordlyknowledge.uz

nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, muloqot madaniyati ko‘nikmalarini egallashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. https://lex.uz
2. 2020 yil 24 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. http://uza.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori. https://lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 187-sonli qarori. https://lex.uz

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz